

## **AHMAD A'ZAM HIKOYALARIDA MA'NAVYI-AXLOQIY MASALALAR**

**Ro'ziboyev Bobir Mirzaqulovich**

Samarqand viloyati Bulung'ur tumani 69-maktab o'qituvchisi,

GulDU mustaqil tadqiqotchisi

**Abdurahimova Sevara Malikovna**

Samarqand viloyati Bulung'ur tumani 10-maktab o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ahmad A'zamning "Odamning olasi" qissasi inson ma'naviyati, uning ichki dunyosi, qiyofasi haqidagi hikoyatlardan biri bo'lib, unda birinchi personaj Sherquziyning ichki dunyosi, xususan, uning ichki monologi, fikrlari ifodalangan. Bu qissa inson ma'naviyatini asrab-avaylash, muammolarni hal etishga undashda o'ziga xos yo'nalish bera oladigan asarlardan biri ekanligini e'tirof etish mumkin. Bu qahramonning hikoya davomida yuzaga kelgan muammoni hal qilish yo'li uning yolg'iz o'g'li Sultonga aytgan so'zlari va topgan amaliy yechimida namoyon bo'ldi. Ya'ni, ota o'g'lining turmushga chiqishiga qarshi emas, balki faqat o'zi uchun boshqa uy qurishni, pul topishni, o'z uyini boshqarishini, ishlashini va hokazolarni talab qiladi.*

*Muallif Sherquziy siymosiga salbiy munosabatni kinoyali nutqi orqali aks ettirsa-da, bugungi kunda ota-onalarga ibrat bo'ladigan masalani ilgari surgani, har bir ota-ona farzandiga halol mehnat kabi talablar qo'ysa, u haddan tashqari qayg'urmasa. Farzandim men ko'rmagan sharoitlarni ko'rsa, hozirgi yoshlarning ko'pchiligi yorug'likdan ustun bo'lishga intilmay, oila qadriga yetgan bo'lardi.*

*Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda o'zbek hikoyachiligida ma'naviy-axloqiy muammolar talqini adiblar tomonidan mahorat bilan aks ettirilgan. Ahmad A'zam "Odamning olasi" qissasi orqali yoshlar tarbiyasi va ma'naviyatini shakllantirishda mehnatning o'rnini ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi. Bunda yozuvchilarning mahorati tufayli mavzularni ifodalashda badiiy obraz vositalaridan o'rinli foydalanilgan.*

**Kalit so'zlar:** "Odamning olasi" qissasi, kinoyali sharh, mulohazalar, inson ma'naviyati, yozuvchilar mahorati.

### **ABSTRACT**

*Akhmed Azam's story "Odamning olasi" is one of the stories about human spirituality, his inner world, image, and it expresses the inner world of the first character, Sherquzi, specially his inner monologue and thoughts. is manifested through imagination. It can be recognized that this story is one of the works that can give a unique direction in preserving human spirituality and encouraging solving*

problems. This hero's way of solving the problem that arose during the story was shown in what he said to his only son, Sultan, and in the practical solution he found. That is, the father is not against his son's marriage, but only demands that he is going to build another house for himself, earn money, manage his own live hood, work, etc.

Although the author's reflects a negative view of Sherquzi's image through ironic speech, the fact that he put forward an issue that serves as an example to parents today, if every parents demand such as honest work to their children if he did not care too much so that my child would see the conditions that I did not see, most of today's youth would not try to be above the light, they would have reached the value of the family.

In conclusion, nowadays Uzbek storytelling, the interpretation of spiritual and moral problems is skillfully reflected by writers. Akhmed A'zam managed to demonstrate the role of work in the formation of youth education and spirituality through the story "Odamning Olasi". In this case, due to the skills of the writers, the means of artistic images were used appropriately in the expression of the topics.

**Key words:** The story of "Odamning Olasi", sarcastic comment, remark, human spirituality, writers' skill.

## **KIRISH**

Yozuvchi Ahmad A'zamning "Odamning olasi" nomli hikoyasi inson ma'naviyati, uning ichki dunyosi, tiynati haqidagi hikoyalardan biri bo'lib, unda yetakchi qahramon bo'lgan Sherqo'zining ichki dunyosi yuqorida ham aytib o'tilganidek, asosan, uning ichki monologi, o'y-xayollari orqali ochib beriladi. Sherqo'zining kim ekanligi hikoya boshidagi uning uy tutumi ro'zg'or yuritishi haqidagi tafsilotlardananoq namoyon bo'ladi:

"Aslida-ku, Sherqo'zi ro'zg'ori, xo'jaligidan nolimasa ham bo'ladi – joyida. Eshik oldi bir tekis vaysh, husayni, keyin yana bir qator qora kishmish, muskat... eng oxiri – ertagi daroyi. Undan so'ng xuddi shunday tartib bilan pomidor, bodring, kartoshka, loviya, bulg'ori qalampir, achchiq jaydari qalampir ekilgan. Uyning orqasida esa beda, makkajo'xori, piyoz, ozgina sarimsoqpiyoz, sabzi, yana urug'ini Sherqo'zi qaydandir topib kelgan "sudanka" degan yemish o't. Yon tomonda chog'roqqina bog', u yerda mevali daraxtning yong'oq bilan shaftolidan boshqa qariyb hammasi bor"<sup>1</sup>.

Tomorqadagi badastrlik hovli atrofidagi teraklardan tushadigan foyda va mol-holi, qo'y-qo'zisi haqidagi ma'lumotlari bilan birgalikda yozuvchining qahramonga

<sup>1</sup> Аҳмад Аъзам. Ўша китоб. – Б.75.

bergan kinoyali izohi – remarka bilan birgalikda uning puxta-pishiq inson ekanligini ko'rsatgan:

“Hovlining chor-atrofi bir tekis bo' y tortgan mirzateraklar bilan o'ralgan. Har biridan ikkita bolor chiqadi. Agar qirq so'mdan (Sherqo'zi oshiqcha so'ramaydi – insofi bor) pullasa, o'zicha o'sadigan, osh-non so'ramaydigan shu teraklarning o'zi ikki yarim-uch ming turadi. Bu ham bir davlat-da, pul topish oson emas, lekin yo'lini bilish kerak. Sherqo'zi pulga muhtoj emas. Uch govmish sigiri (bittasi yaqinda tug'ib beradi), ikki zotli buzog'i, bir novvosi bor; buqasi esa boquvda, burniga o'tkazilgan xalqani silkitib, pishqirib yotibdi. Besh-oltita qo'yi dashtda – cho'ponda”<sup>2</sup>.

Sherqo'zi xarakteri tavsifi bu bilan chegaralanmaydi, ushbu qahramonning puxta inson ekanligi uning rayijrokomga to'g'ri borib, qilgan xizmatlari evaziga yangi jiguli mashinasini undirib kelganligida ham aks ettirilgan:

“Xullas, markazga imi-jimida, hech kinga bildirmay jo'nagan Sherqo'zi qaytishda hammaga ko'z-ko'z qilib govmish sigirining qaymog'idek tovlanib turgan “Jiguli”ni haydab keldi. Qurg'ur, o'zi ham kiyikdek bo'lar ekan, sal tizginni bo'shatsang – uchadi-ya, uchadi! Ayniqsa, Sherqo'zining bunga qadar kerakli qog'ozlarigacha to'g'rilab qo'yib, mashina haydashni ham o'rganib olganini aytmaysizmi!”<sup>3</sup>

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Yozuvchining kinoyaviy nutqi mazkur qahramonga bergan ta'riflarida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, uning yangi mashinani ko'z-ko'z qilishi “govmish sigirining qaymog'idek tovlanib turgan “Jiguli”ni haydab kelishi” orqali tasvirlangan. Bundan mashinaning rangi qaymoqrang ekanligi anglashilgan.

Shunday bo'lgani bilan Sherqo'zi ham barcha insonlar singari irim-sirimlarga befarq emasligi uning olashaqshaqning shaqillab sayrashidan yomon xabarni kutishi orqali aks ettirilgan. “Bizni tashlab qayga ketdi ul qaro ko'zim mani”, deya ming'irlab xirgoyi qilib yotgan edi, qay go'rdan olashaqshaq paydo bo'lib, naq tepasida shaqqillab qoldi. Sherqo'zi cho'chib tushdi, qo'lidagi rayhonni dasturxonga tashlab yubordi. Kisht-e, nafasing o'chsin! Hoy Karomat, hayda buni, hozir chakki xaltangni teshib ketadi”<sup>4</sup>.

Olashaqshaq detali hikoya so'ngida ham tilga olinib, endi Sherqo'ziga u darajada ta'sir ko'rsatmayotgani tasvirlanishidan asar qahramonining muammolarni hal etishdagi ustamonligini sabab sifatida keltirish mumkin.

<sup>2</sup> Аҳмад Аъзам. Соясини йўқотган одам. – Т.: Шарқ, 2004. – Б.76.

<sup>3</sup> Аҳмад Аъзам. Ўша китоб. – Б.77.

<sup>4</sup> Аҳмад Аъзам. Соясини йўқотган одам. – Т.: Шарқ, 2004.– Б.78.

Sherqo'zining o'z ukasi Musoning ilmiy ishi befoyda va besamar ekanligi haqidagi o'ylari unga aytgan so'zlari orqali gavdalantirilgan:

“Oldin o'zlariga xotin topsinlar! Olti yildan beriki, odamlarning ichidagi gaplarni topish to'g'risida kitob – dasturilamal yozyaptilar (Dissertatsiyasining muvzusini Muso har kelganida akasiga dehqoncha qilib qayta-qayta tushuntirib qo'ygan edi). Biron bir qizning ham ko'nglini tekshirsalar bo'larmidi, zora, o'zlariga mayl bildirgan chiqar...”<sup>5</sup>.

Mazkur qahramonning hikoya davomida yuzaga kelgan muammoni hal etish usuli uning o'zining yagona o'g'li Sultonga aytgan gaplarida, topgan amaliy chorasida namoyon bo'lgan. Ya'ni ota o'g'lining uylanishiga qarshi emas, faqat o'zi uchun alohida 3 xonali uy solishi, shuningdek, pul topib, o'z ro'zg'orini o'zi yuritishi, ishlashi kabilarni talab etadi:

“Ota-bola hovliga chiqishdi. Sherqo'zi qaysi teraklarni yiqitish kerakligini bir boshdan ko'rsatib turdi. Sulton esa bolta bilan kaftdek po'stlog'ini uchirib belgi qilib boraverdi.

- Yigirmata, – dedi Sherqo'zi. – Yetadi. Yiqitib, butaysan-da, po'stlog'ini shilasan. Ko'zingga qara, elektr simiga yonboshlatib qo'yma tag'in. Daraxt bolta urgan tarafga qulaydi, esingdan chiqmasin. Aylantirib g'ajib tashlama, bir tomonidan chop. Bunga ikki kun ketadi. Keyin mana bu eski og'ilni buzib, o'rnini tekislaysan.

Bironta shopir bilan tog'dan besh-olti moshin tosh tashiysan. Biron tonna semon, uch mingta g'isht quyasan. Og'ilning o'rniga, keyin tashib qiynalmaysan-da. Terishiga, mayli, o'zim qarashaman, ammo boshqa hamma ishni o'zing qilaman, o'rgataman. Uch uy, bittasi mana bunaqasiga tushadi. Bu yog'i ayvon. Imoratni quling o'rgilsin qilib bitirasan, ana undan keyin – to'y. Kelinni yangi uyga tushirmasak uyat bo'ladi, hamma shunday qilyapti. Sening boshqalardan kam joying yo'q”<sup>6</sup>.

Yozuvchining kinoyaviy nutqi asar qahramoniga nisbatan davom etadi. Sherqo'zi chordevor deb atayotgan uy aslida yaxshi qilib solingan besh xonali risoladagidek uy ekanligi ushbu uyga berilgan ta'rifdan ham anglashiladi.

“O'zing qara, shu choldevorga kelin obkelib bo'ladimi? – U poydevori yerdan bir quloch ko'tarilgan, derazalari uch tavaqali, tomi shifer bilan qoplangan, oqlangan besh xonali imoratga ishora qildi. – Senga yangi uy kerak. Bir chol-u kampirga shu choldevor ham bo'laveradi. So'g'in... pul topishning ham yo'lini o'yla. Tokaygacha seni boqaman? Endi bizni boqadigan vaqting ham keldi... Mayli, seni ko'chaga tashlab qo'yamayman – ming so'm beraman. Imorat uchun. Ana, bor-e, novvosni ham

<sup>5</sup> Аҳмад Аъзам. Ўша китоб. – Б.86.

<sup>6</sup> Аҳмад Аъзам. Соясини йўқотган одам. – Т.: Шарқ, 2004.– Б.88.

to'yingga atadim. Bozordan bironta mol olib beraman. Boqib semirtirsang – foydasi seniki, zarar qilsang – to'laysan. Lekin qolganini o'zing topasan. To'yga ham besh-olti ming kerak. Nima qilasan? Ishlaysan-da. Brigadirdan so'rab ko'ray-chi, aravani berarmikan. Keyin, paxta tugagach, Pirinning qavatiga kirib traktorchilikni ham o'rgansang... Hozir traktorchi ham oyda ikki yuzdan oshirib tushiradi. Ola xurjunni yelkalash oson emas"<sup>7</sup>.

Ya'ni shuncha tashvish bilan birga o'g'liga biror kasb yoki hunar egasi bo'lishi kerakligi ham aytib o'tilmoqda. Bu narsa qahramonning mazkur fikrlari va amaldagi ishlarga da'vati inson ma'naviyati shakllanishida ham muhim jihatlarni qamragan.

“Jamiyki narsa pulga bog'liq bo'lib qoldi. Hozir qizlar to to'ygacha, to ship etib oyoq-qo'lingni bog'laguncha iljayib: “Sulton akajon, sizsiz menga dunyo qorong'u”, deb yuradi, keyin xat olib, xat berishlar qayoqda? Pul olib, pul berishadi.

Sultonning qo'lidan bolta tushib ketay derdi.

- Bunaqada... uch yilda ham... - deya oldi u.

- Ha? Uylanish – olma pish, og'zimga tush emas. Agar bu ishlarni ertaroq bitiraman, pulni bir oyda topaman, desang ham – ixtiyoring.

Men cho'zib o'tirmayman. Yoki shuncha vaqt meni kutib o'tirmaydi, deb qo'rqayapsanmi? Kutadi, yaxshi ko'rsa – kutadi. Sen yangi uyga tushirib olaman desang, obro'yi-da, qaytanga boshi osmonga yetadi. Yo yaxshi ko'rmaydimi?"<sup>8</sup>

Sherqo'zi tilidan aytilayotgan ushbu ishlar, ya'ni o'z hayotini o'z qo'li bilan barpo etishni yoshlar o'z qo'li bilan amalga oshirsa, hayotning, turmushning qadriga yetgan va hayotda ajrimlar soni kamaygan bo'lar edi.

“He, sodda bolam! Xotin deb o'lib-tirilib pul yig'asan, tushurib ham olasan. To'ydan keyin uch-to'rt hafta chillang chiqquncha yashinmahoq o'ynab, quvlashib ham yurasan. Keyin... boshlanadi – ro'zg'orning unisi kam, bunisi kam. Bir vaqt qarabsanki, sevgi degani donga qo'ngan chumchuqdek pir-r etib uchib ketdi, uning o'rniga esa xotining to'rt-beshta churvaqani qatorlashtirib tug'ib tashlabdi.

Shundan keyin dod sol, baqir, qayda – yoshlik qaytmaydi, yashinmahoq ham yo'q. Bolalaring katta bo'ladi, qo'lini halollash kerak, uylantirish kerak. Ular-ku hech narsaning tashvishini tortmay unib-o'saveradi, ammo sening bo'yningda – bir umrlik bo'yinturuq!"<sup>9</sup>

Yozuvchi garchi Sherqo'zi obraziga nisbatan kinoyaviy nutq orqali negativ qarashni aks ettirayotgan bo'lsa-da, bugungi kundagi ota-onalarga o'rnak bo'ladigan masalani ilgari surganligi, agar har bir ota-ona o'z farzandi oldiga shu kabi halol mehnat qilish talabini qo'ysa, o'zim ko'rmagan sharoitni farzandim ko'rsin deya

<sup>7</sup> Аҳмад Аъзам. Ўша китоб. – Б.89.

<sup>8</sup> Аҳмад Аъзам. Соясини йўқотган одам. – Т.: Шарқ, 2004.– Б.89.

<sup>9</sup> Аҳмад Аъзам. Ўша китоб. – Б.90.

ortiqcha erkalatib yubormasa, bugungi kun aksar yoshlari og'irning ostidan yengilning ustidan bo'lishga harakat qilishmas, oilaning qadriga yetishgan bo'lishar edi.

“Jo’ralaring o’qiydi, bitirib kelib yog’liq-yog’liq joylarni egallaydi. Yana o’qiyman degani Muso amakingga o’xshab Maskov, Leningrad, Kiyev degan yurtlarga boradi, dunyo kezadi. Sen esa birimni ikki qilay, chirqillab yotgan bolalarimning og’ziga biron yegulik tiqay, deb, xotinning etagidan chiqolmay, shahar nima, sayohat nima, tomosha nima – bilmay o’yin-kulgidan, dunyoning gashtidan bebahra o’tib ketasan. Doim shu qishlog’ing, vag’-vug’ yig’layotgan bolalaring, shu qora ketmon... Mayli, nima qilasan endi, uylanaman, deb so’z berib qo’ygansan, ustidan chiq. Chidaysan-da endi, - deya Sherqo’zi, go’yo o’g’li allaqachon uylangan-u hozir otasiga kun kechirishning og’irligidan Sherqo’zi uylanishning “qora” manzarasini o’g’liga aniq-ravshan chizib berdi, misollar bilan tushuntirdi, kuyinib uqtirdi, unga juda achindi, bunday mushkul ahvoliga o’zi madad bo’lolmasligi uchun taassuf bildirdi: uylangandan so’ng har kim ham, agar u erkak bo’lsa o’z aravasini o’zi tortishi kerak”<sup>10</sup>.

Sherqo’zi tomonidan o’g’li tasavvuri uchun chizilgan ushbu “qora” manzara, albatta, Sultonning endi maktabni bitiriboq sevgan qiziga uylanishga ahd qilishi xarxashasiga javoban qilinayotgan tadbir edi. O’g’lining oliy ma’lumotli bo’lish haqidagi orzusi ham bu orzusi oldida barbod bo’lishi ota tomonidan obrazli qilib tavsiflab beriladi. Lekin o’g’ilda otasining aytgan ishlarini boshlashdan boshqa chora yo’qligini bilgan otaning bu ishlarni qildirish evaziga hech narsa yo’qotmasligi ham bu obrazning o’ta pishiq kimsa sifatida tasvirlanganligini dalolatlaydi.

“O’zi esa boshqa narsalarni o’yladi: og’ilni yiqitib, o’rnini tekislashga vaqti yo’q edi – ayni muddao; lekin teraklarga jabr bo’ladigan bo’ldi-da. Xay mayli, yiqitib, archib, yaxshilab taxlab qo’yilsa, birontasi so’rab qolar. Ana Sohbnazar aka bu yil imoratini boshlamoqchi, bolor izlab yuradimi, keladi-da. Bo’lmasa, ustiga qora qog’oz yopsa, nam o’tmaydi, qurib yotadi. O’zi ham vaqti keldi – yana bir yil qirqilmasa, o’zagi chirib qoladi”<sup>11</sup>.

Asar davomida Sherqo’zi ukasi Musoning ham oldiga borib, o’zini “sil” kasaliga chalingan kimsa sifatida ko’rsatib, soxta ko’zyosh qilib, uning ham rahmini keltirib, keyinroq hech qanday kasal emasligini bildirib, yarashib oladi va o’g’lining bemahal uylanish haqidagi mojarosi tufayli yuzaga kelgan barcha muammolarni o’z foydasiga ijobiy hal etadi.

<sup>10</sup> Аҳмад Аъзам. Соясини йўқотган одам. – Т.: Шарқ, 2004. – Б.91.

<sup>11</sup> Аҳмад Аъзам. Ўша китоб. – Б.94.

“... Musoqulboy bu yil yoqlarmikan? Kitob yozish shuncha qiyin ishmi, a? Ha, odamlarning ichidagini bilish oson emas-da. Heh-he, “Tuyg’ularini oyoqosti qilishga haqqingiz yo’q” emish. Ol-a! Ha, mana tuyg’ularini oyoqosti ham qilmadik, katta yo’l ham ochib berdik. Qani, bu kishining tuyg’uchalari necha kunga chidar ekan? Yigirmata terakni yiqitishni bir haftaga cho’zadi. Keyin og’ilni yiqitganda bir changib bersin, bir changib bersin! “Ota, bu...ni bir yedim, ikkinchi yemayman, o’qishga boraman”, deb chopib keladi oldimga. Ishlarni sanab berganimda ko’zi chiqib ketdi-yu, yana bu kishi xotin olarmishlar”<sup>12</sup>.

Ukasining ilmiy ishi inson hislari bilan bog’liq bo’lganidan jiyanining sevgisini oyoqosti qilmaslikka da’vati oddiy balandparvoz gap ekanligi, haqiqiy hayot ancha murakkab, yoshlikdagi ayrim tuyg’ular o’tkinchi ekanligi Sherqo’zining ichki monologi orqali aks ettirilgan. Asar so’nggida qahramonning boshqa oilaning yaxshi bir qizini kelin qilish haqidagi o’ylari esa ota-onaning o’z farzandiga doimo yaxshilikni ravo ko’rishini isbotlaydi.

“Shu Sohibnazar akaning sakkizinchiga o’tgan qizchasi qo’g’irchoqdekkin bo’libdi-da. E, tavba, umr juda tez o’tadi-ya! Sohibnazar aka birinchi xotinini tug’masligi uchun qo’yib yuborgani xuddi kecha edi. Mana, qizi bo’y yetib qolibdi. Onasi juda pokiza ayol. Sultonboyni bir amallab o’qishga joylashtirsak, ikki-uch yilni o’tkazib shu jamalaksochga bir og’iz solib ko’ramiz-da”<sup>13</sup>.

Ko’rinadiki, hikoyaning yetakchi qahramoni bo’lgan Sherqo’zi yozuvchi tomonidan kinoyaviy nutq asosida asli “olasi ichida”gi odam sifatida ta’riflanayotgan bo’lsa-da, uning hayot haqidagi qarashlari, mehnat va bilim egallash orqali ro’zg’or tebratish haqidagi falsafasi, yoshlikning go’rligi tufayli xatoga yo’l qo’ymaslik uchun qo’llagan “shumligi”, hattoki ilm qilaman deb oila qurmay yurgan ukasini ham uylanishga ko’ndira olganligi kabilar uning asli bugungi kunda jamiyatda yuzaga kelayotgan otalar va bolalar, aka-ukalar orasidagi muammolarni hal etishda o’ziga xos yechimni ko’rsatayotgan qarashlarni ilgari surishda qo’l kelgan deyish mumkin.

## **XULOSA**

Umuman, ushbu hikoyaning inson ma’naviyatini shakllantirishda, uni muammolar yechimi sari undashda o’ziga xos yo’nalish bera oladigan asarlardan biri sifatida ko’rishga arziyishini e’tirof etish mumkin.

Xullas, so’nggi davr o’zbek hikoyanavisligida ma’naviy-axloqiy muammolar talqini yozuvchilar tomonidan mahorat bilan aks ettirilmoqda. Ahmad A’zam “Odamning olasi” hikoyasi orqali yoshlar tarbiyasi va ma’naviyatining shakllanishida

<sup>12</sup> Аҳмад Аъзам. Соясини йўқотган одам. – Т.: Шарқ, 2004. – Б.94.

<sup>13</sup> Аҳмад Аъзам. Ўша китоб. – Б.94.

mehnatning o'rnini masalasini ko'rsatishga erishgan. Bunda mavzular ifodasida badiiy tasvir vositalarining yozuvchilar mahorati tufayli o'rinli qo'llanilganligi ham qo'l kelgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Қ.Йўлдош. Ўзбек насри уфқлари. («Ёник сўз» китоби). – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – Б.35.
2. [www.e-adabiyot.uz.pg.1](http://www.e-adabiyot.uz.pg.1). Собир Ўнар. Баъзан маънавиятни, адабиётни бутунлай бегона соҳа деб яшаётган раҳбарлар.
3. Муаллифлар жамоаси. Адабиёт назарияси. 2 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.153.
4. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Т.: ЎАЖБНТ. 2008 – Б.332.
5. Маъсума Аҳмедова. Ҳикоялар. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт матбаа уйи. 2012. – Б. 46.
6. Аббос Саид. Қария. – Т.: Шарқ, 2006. – Б.350.
7. Биби Робия Саидова. Парвоз. – Т.: Адиб. 2014. – Б.21.
8. Исажон Султон. Ҳикоялар. – Т.: Sharq, 2012. – Б. 148.
9. Latif Mahmudov. Sevgi desam. – Т.: O'qituvchi, 2005. – В.17.
10. Исажон Султон. Озод. – Т.: Sharq, 2012. – Б. 230
11. Абдуғафур Расулов. Акслар фалсафаси. (сўнгсўз)/ Исажон Султон.Озод. – Т.: Sharq, 2012. – Б. 425.
12. Аҳмад Аъзам. Соясини йўқотган одам. – Т.: Шарқ, 2004. – Б.76
13. Ziyouz.com
14. Natlib.uz